

OLIGOFRENOPEdagogIKANING DOLZARBLIGI VA BOLALAR HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Xonqulova Zohida Sherali qizi

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

Defektologiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola oligofrenopedagogikaning tarixi, rivojlanishi hamda dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, aqli zaif bolalarning ta'lim-tarbiyasiga qaratilgan qonun va farmonlarning ular hayotidagi ahamiyati va aqli zaif bolalarga ta'lim-tarbiya berish, ularni hayotga tayyorlash va psixologik-pedagogik yondashuv orqali aqli zaif bolalarni hayotdagi o'rnini topishida yordamlashish haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: Oligofrenopedagogika, aqli zaif bolalar, korreksiya, yordamchi maktab, qonun, qaror, ta'lim-tarbiya, aqliy nuqson, psixologiya, pedagogika.

Oligofrenopedagogika fanining vazifasi – bu aqli zaif bolalarni o'qitish, ta'lim-tarbiya berish va ularni nuqsonlarini tuzatish (korreksiya) qilishdan iborat. Bu fan aynan tuzatish orqali aqli zaif bolalarni jismoniy va ruhiy holatini yaxshilashga, ularni nuqsonlarini korreksiya qilishga yordam beradi.

Oligofrenopedagogika fani – bu aqli zaif bolalarga hayotga moslashishida ko'maklashish, ularga o'zligini hurmat qilishlari va anglashlarida yordam beradigan ta'limiy va tarbiyaviy yondashuvlarni ishlab chiqish, boshqa shaxslar bilan muloqot qila olishlaridagi ko'nikmalarga yordamlashish, hamda o'zidagi barcha qobiliyatlarni anglashida yordam berib, hayotdagi o'z o'rnini va qadrini anglatirish kabi bir qancha qator vazifalarni maqsad qiladi.

Aqli zaif bolalar ta'lim-tarbiyasi masalalari bilan shug'ullanish ishlari boshlanganiga 200 yildan oshgan bo'lsa-da bir tizimda atroflicha, bir butun, tugallangan ishlar XX asr boshlariga to'g'ri keladi. 1920-yillardan respublikamizda turli nuqsonlilar ta'lim-tarbiyasi o'ziga xos mazmun kasb eta boshladi. O'zbekistonda oligofrenopedagogikaning rivojlanishi XX asrning oxirlariga borib taqaladi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, ta'lim tizimida jiddiy islohotlar amalga oshirildi va aqli zaif bolalar uchun maxsus pedagogik yordam tizimining tashkil etilishi zaruriyati yuzaga keldi. Oligofrenopedagogikaning yurtimizga kirib kelishi va rivojlanishi bir necha asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

5. Mustaqillikdan oldingi davrda O'zbekistonda aqli zaif bolalar bilan ishlashga oid dastlabki o'quv yurtlari va pedagogik metodlar mavjud edi. Ammo, umumiy pedagogik tizimda aqli zaif bolalar uchun maxsus o'qitish dasturlari rivojlanmagan edi.

6. 1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonlari boshlandi va aqli zaif bolalar uchun maxsus ta'lim va pedagogik yordamga alohida e'tibor qaratildi. Aqli zaif bolalar uchun esa maxsus ta'lim xizmatlarini tashkil etish zarurati paydo bo'ldi va o'qituvchilarni tayyorlash hamda ularni malakasini oshirish maqsadida yangi o'quv dasturlari va metodikalar joriy qilindi.

7. O'zbekiston BMTning turli qobiliyatlar va ijtimoiy yordam sohasidagi maxsus agentliklar bilan hamkorlikni kuchaytirgan holda, maxsus ta'lim berish bo'yicha

o'zgarishlarni amalga oshira boshladi va yurtimizga oligofrenopedagogikaning asosiy tamoyillarini o'rganish va joriy qilish bo'yicha xalqaro tajriba olib kelindi.

8. Bu borada O'zbekiston pedagogik universitetlarida ayniqsa pedagogika va psixologiya fakultetlarida, oligofrenopedagogika bo'yicha maxsus kurslar va o'quv dasturlari ishlab chiqila boshlandi va ta'lim berishni boshlash, pedagogik nazariyalar va amaliyotlar takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borila boshlandi. Oligofrenopedagogika bo'yicha o'zbek tilida ilmiy adabiyotlar va o'quv qo'llanmalar nashr qilinib boshlandi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda oligofrenopedagogikaning dolzarbligi juda yuqori bo'lib, bu soha aqli zaif bo'lgan bolalar va yoshlarni tarbiyalash, ta'lim berish, reabilitatsiya va integratsiya qilishni ta'minlashga qaratilgan. Aqli zaif bolalarni o'qitish va tarbiyalash borasida Prezidentimiz tomonidan berilayotgan farmon va qarorlar bu bolalarga ta'lim-tarbiya berish yo'llarini keng ochmoqda.

Birinchi Prezidentimiz tomonida qabul qilingan „Ta'lim to'g'risida“gi va „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida“gi 1997-yildan buyon amal qilib kelayotgan bu qonunlar, 2020-yil 23-sentabrda yangi tahrirda qayta qabul qilindi. Aynan shu yangi tahrirning 5-moddasida „Jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi“ deb tasdiqlandi. Bundan ko'rinib turibdiki yurtimizda sog'lom bolalar qatori jismoniy, aqliy, sensor (sezgi), yoki ruhiy nuqsonlar bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun inklyuziv ta'lim olishi huquqlari berildi va bu borada chora tadbirlar kuchaytirildi.

Ayniqsa Prezidentimizning 2020-yil 13-oktabrdagi „Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish uchun chora-tadbirlari to'g'risida“gi PQ-4860-sonli qarori yaqqol misol bo'la oladi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining o'tgan yillar davomida bergan va hozirgi kunda berilayotga farmoni va qarorlari barcha aqli zaif bolalar va oila a'zolari uchun ancha qulayliklar va imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Oligofrenopedagogika nuqsonli shaxs rivojida irsiy omillarga alohida e'tibor beradi. Ammo irsiy, nasliy belgilar shaxsning ijtimoiy mohiyatini belgilamaydi. Bilimlar, axloqiy moyillik, ko'nikma va malakalar xromosomlar orqali nasliy yo'l bilan avloddan avlodga berilmaydi. Balki bular hayot jarayonida orttirilib boriladi.

Inson tug'ma tabiiy belgilar bilan unga ta'sir etuvchi holatlarning o'zaro mahsulidir. So'nggi yillarda aqli zaiflik mohiyatini tushuntirishda ma'lum ruhiy kasalliklar emas, balki qobiliyatlarining rivojlanmasligi asosida kelib chiqadigan xulqning buzilishidir, deb ko'rsatish odat tusiga kirib qolmoqda.

Shular asosida noto'g'ri holda „aqliy qoloqlik“ tushunchasi kengaytirilib, unga pedagogik qarovsiz bolalar, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar, huquq-tartib normalarini buzuvchi bolalar ham kiritilmoqda. Aqli zaiflikning mohiyatini nuqsonning moddiy asosi bilan bog'lab, bunga bosh miyaning organik buzilishini ko'rsatadilar. Amaliyotda ba'zan bosh miyasi zararlangan bolalarni aqli zaiflar qatoriga qo'sha olmaymiz. Bunday hollarda bosh miya zararlanishi bilish faoliyatining buzilishiga olib kelmaydi. Bosh miya organik buzilishlari natijasida kelib chiquvchi aqliy nuqson bilan

birga ma'lum analizatorlarning jarohatlanishi ham yuz berishi mumkin. Aqliy nuqson ko'rish, eshitish, nutq va harakat tizimidagi nuqsonlar bilan birga keladi. Ba'zi hollarda aqliy nuqson markaziy bilan qo'shilib ham kelishi mumkin. Buning sabablari turli-tuman bo'lishi mumkin. Organizmda modda almashinuvining buzilishi, rezus faktor, genetik nuqsonlar ham bunday turdagi oligofreniyaning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Oligofrenopedagoglar biologik omillarga katta e'tibor beribgina qolmay, balki ta'lim-tarbiya, atrof-muhitga ham alohida e'tibor beradilar. Yordamchi maktablarning boshlang'ich sinflaridagi (korreksiyalovchi) tuzatuvchi-tarbiyalovchi ta'lim ta'sirida aqli zaif bolalar ruhiy jarayonlarida juda katta siljishlar yuz beradi.

Yordamchi maktabda o'quvchilar nazoratsiz qolmasligi uchun moddiy imkoni bo'lgan maktablarda kuni uzaytirilgan guruhlar tuzilgan, yetim bolalar uchun bolalar uylari, maxsus maktab-internatlar tashkil etilgan:

- maktabgacha tarbiya - aqli zaif bolaning ilk yoshidan 7-8 yoshigacha;
- boshlang'ich ta'lim - 1-4-sinflar;
- o'rta maxsus ta'lim - 5-9-sinflar;
- kollej.

O'quvchilarga 9-sinfda kasb-hunar turlarini kengaytirish, oilaga tayyorlash, huquqiy, iqtisodiy, ekologik va boshqa tarbiya turlariga oid bilimlarni yanada kengroq berish imkoni yaratildi.

Aqli zaif o'quvchilarning qobiliyatli va kasb-hunarga qiziqqan hamda o'qishni davom ettirishga layoqatli bo'lgan bolalarni maxsus guruhlarda (kollejlarda integratsiya usulda) o'qitishi kasb-hunar ta'limi bandlarigina taalluqlidir. Chunki aqli zaif o'quvchilar boshqa yuqori darajada ta'lim olishlariga ularning aqliy nuqsonlari imkon bermaydi. Lekin kasb-hunar kollejlarda aqli zaif o'quvchilarning nuqson darajalari inobatga olingan holda ta'lim olishlari mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa shuki, oligofrenopedagogika fani aqli zaif bolalarni tarbiyalab, jamiyatda o'z o'rnlarini topishda ular uchun eng muhim bo'lgan ta'lim-tarbiya beruvchi pedagogik va psixologik yordamlar har tomonlama hayotga tayyordi. Yurtimizda aqli zaif bolalar uchun yaratilgan imkoniyatlar va sharoitlar, berilayotgan va beriladigan ta'lim-tarbiyalar uchun ishlab chiqilgan nazariyalar, metodlar va o'quv dasturlar barcha aqli zaif bolalar uchun eng samarali va foydali yo'llar bilan tadbqiqilinyapti. Bu kabi yondashuvlar aqli zaif bolalarni nafaqat korreksiyalaydi, balki ularni qo'llab-quvvatlash orqali hayotga qizishlarini orttiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. P.M.Po'latova „Maxsus pedagogika“ G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2005
2. M.Y.Ayupova „Logopediya“ O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent-2007
3. R.A.Mavlonova, N.Raxmonqulova, N.Voxidova „Pedagogika“ fanida o'quv qo'llanma. Toshkent-2007